XALQ DEPUTATLARI TO‘RTKO‘L TUMANI KENGASHINING
Q A R O R I

2025-yil 30-dekabr VII-19-157-13-190-K/25 To‘rtko‘l tumani

To‘rtko‘l tumanining 2026-yilgi mahalliy byudjetini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6, 24-moddalari, Byudjet kodeksining 27, 99-moddalari, “2026-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi 2025-yil 25-dekabrdagi O‘RQ-1105-son Qonuniga va Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesining 2025-yil 29-dekabrdagi 88/IX-sonli qaroriga muvofiq, xalq deputatlari To‘rtko‘l tumani Kengashi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasining “2026-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi Qonuni hamda Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesining 2025-yil 29-dekabrdagi 88/1X-son qarori (keyingi o‘rinlarda qaror deb yuritiladi) rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Qarorga muvofiq, To‘rtko‘l tumani byudjetining 2026-yilgi daromadlari 137 542,6 mln.so‘m va xarajatlari esa 137 542,6 mln so‘mga ma’lumot uchun qabul qilinganligi, shuningdek To‘rtko‘l tumani byudjetining shaxsiy g‘azna hisobvarag‘ida turgan byudjet mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori 828,0 mln so‘m etib belgilanganligi inobatga olinsin.

3. Tuman byudjeti daromadlarining 2026-yil uchun asosiy prognoz ko‘rsatkichlari 1-ilovaga muvofiq hamda tuman byudjetidan 2026-yilda hududiy byudjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan xarajatlarning cheklangan miqdorlari 2-ilovaga muvofiq, shuningdek To‘rtko‘l tumani mahalliy byudjetiga umumdavlat soliqlari va boshqa soliqsiz tushumlardan ajratmalar me’yorlari 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Tuman byudjeti zaxira jamg‘armasi hajmi 2026-yil uchun 2 509,6 mln so‘m miqdorida 4-ilovaga muvofiq belgilansin.

Bunda, zaxira jamg‘armasi mablag‘larini amaldagi byudjet qonunchiligiga muvofiq, byudjet tizimi byudjetlari shakllantirilayotganda oldindan nazarda tutib bo‘lmaydigan xarajatlarni, shuningdek ijtimoiy-iqtisodiy beqarorlik yuzaga kelgan vaziyatlarda amalga oshirilishi zarur bo‘lgan tadbirlarni moliyalashtirish uchun yo‘naltirilishi ta’minlansin.

5. To‘rtko‘l tumani mahalliy byudjetining 2025-yil uchun yo‘l qo‘yiladigan eng kam mablag‘lar miqdori 5-ilovaga muvofiq, To‘rtko‘l tumani mahalliy byudjetining 2026-yilgi daromadlari va xarajatlari mablag‘larining miqdori 6-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

6. Tumandagi qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar uchun yuridik shaxslar bo‘yicha eng kam miqdori 1 gektar uchun belgilangan bazaviy soliq stavkasi kiritilishi to‘g‘risidagi kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlari 7-ilovaga muvofiq hamda tumandagi jismoniy shaxslar bo‘yicha (dehqon xo‘jaligi yuritish uchun berilgan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlardan tashqari) eng kam miqdori 1 kv.metr uchun belgilangan bazaviy soliq stavkasi kiritilishi to‘g‘risidagi kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlari 8-ilovaga, belgilangan limit doirasida yer usti va yer osti manbalaridan olinadigan suv resurslari uchun soliq stavkalari mutloq miqdorda bir kub metr uchun belgilangan bazaviy soliq stavkalariga nisbatan kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlari 9-ilovaga, 2026-yilda qazib olingan 1m3 noruda qurilish materiallari (sement ishlab chiqarish uchun mo‘ljallangan ohaktoshdan tashqari) uchun qat’iy belgilangan soliq stavkalariga kiritilayotgan oshiruvchi koeffitsientlar 10-ilovaga, ko‘chmas mulkka bo‘lgan huquqlarni Davlat ro‘yxatidan o‘tkazuvchi organlarda ro‘yxatdan o‘tkazilishi kerak bo‘lgan bino va inshootlarning 1 kv. metri uchun Absolyut (qat’iy) miqdorda belgilangan minimal bahosiga solishtirganda kiritilayotgan kamaytiruvchi koeffitsent miqdori 11-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

7. Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (Z.Ismailov), tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi (I.Baqqayev), tuman Soliq inspektsiyasi (J.Annayev) bilan birgalikda 2026-yil mahalliy byudjeti uchun belgilangan ko‘rsatkichlarni o‘z vaqtida va samarali bajarilishini ta’minlash choralarini ko‘rsin.

8. Hududiy byudjet mablag‘larini taqsimlovchilar har chorak yakuni bilan byudjet mablag‘larining samarali va maqsadli sarflanganligi, xarajatlarning amaliy natijalari yuzasidan xalq deputatlari tuman Kengashiga hisobot berib borsinlar.

Bunda, hududiy byudjet mablag‘larini taqsimlovchilar:

byudjetdan ajratilgan mablag‘lardan maqsadli va samarali foydalanish, xususan ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar, oziq-ovqat, dori-darmon, kommunal

xizmatlar va davlat dasturlari uchun belgilangan xarajatlarni to‘liq rejalashtirilishi va o‘z vaqtida to‘lanishi;

o‘zlarining va tasarrufidagi tashkilotlarning xarajatlar smetasi va shtat jadvallari hamda daromadlar va xarajatlar smetalarining to‘g‘ri tuzilishi;

byudjetdan ajratilgan mablag‘larning maqsadli sarflanishi va maqsadli indikatorlarning to‘liq bajarilishi;

tasarrufidagi tizim tashkilotlariga byudjetdan ajratiladigan mablag‘larning to‘g‘ri taqsimlanishi;

o‘z tasarrufidagi tizimda byudjet intizomiga amal qilinishi ustidan nazorat qilinishini;

byudjet jarayonining ochiqligini ta’minlash maqsadida rasmiy veb-saytlarda ma’lumotlarni joylashtirib borilishini ta’minlasinlar.

9. Tuman hokimligining Axborot xizmati rahbari (M.Bekchanova)ga mazkur qarorni tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirish va ommaviy axborot vositalarida e’lon qilish vazifasi yuklansin.

10. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari To‘rtko‘l tumani Kengashining mahalliy byudjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (A.Madraymov) hamda tuman hokimining birinchi o‘rinbosari Z.Ismailov zimmasiga yuklatilsin.

11. Ushbu qaror rasmiy e’lon qilingan kundan kuchga kiradi.

Kengash raisi **XUDAYBERGENOV ILXOMBOY TILAVBAYEVICH**

Xalq deputatlari To‘rtko‘l tumani
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-19-157-13-190-K/25 -son qaroriga
1-ilova

2026-yil uchun To‘rtko‘l tumani mahalliy byudjetining daromadlari prognozi

(ming so‘mda)

№	Daromad turlari	Jami
Jami		**137 542 596,0**
1	Qo‘shilgan qiymat solig‘i	3 240 600,0
2	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	28 864 950,0
3	Jismoniy shaxslar mol-mulkini ijaraga berishdan	1 190 500,0
4	Foyda solig‘i	2 962 500,0
5	benzin, dizel yoqilg‘isi va gazni oxirgi iste’molchiga realizatsiya qilishda to‘lanadigan aktsiz solig‘i	13 454 400,0
6	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	3 833 000,0
7	Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i	13 013 000,0
8	Qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq	130 000,0
9	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	3 181 100,0
12	Aylanmadan olinadigan soliq	9 749 600,0
13	Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i	16 709 000,0
14	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i	37 125 856,0
15	Davlat mulkini ijarasidan tushumlar	264 000,0
16	Davlat boji	1 974 880,0
17	Yig‘imlar	867 460,0
18	Jarimalar	981 750,0

Xalq deputatlari To‘rtko‘l tumani
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-19-157-13-190-K/25 -son qaroriga
2-ilova

To‘rtko‘l tumani mahalliy byudjetidan 2026-yilgi tuman byudjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan xarajatlarning umumiy cheklangan miqdorlari

(ming so‘mda)

t/n	Ko‘rsatkichlar	Miqdori
	Xarajatlar miqdori, Jami	**137 542 596,0**
1	**Tuman maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi**	**46 491 781,0**
	shu jumladan:	
1.1	Maktabgacha ta’lim tashkilotlarini saqlash xarajatlari	21 958 082,0
1.2	Maktab ta’limi tashkilotlarini saqlash xarajatlari	9 190 134,0
1.3	“Barkamol avlod” maktabi saqlash xarajatlari	3 260 724,0
1.4	Maktabgacha va maktab ta’lim bo‘limi saqlash xarajatlari	7 818 641,0
1.5	Mening maktabim	4 264 200,0
2	**3-sonli bolalar musiqa va sa’nat maktabi**	**2 209 874,0**
	shu jumladan:	
	saqlash xarajatlari	2 209 874,0
3	**Tuman madaniyat bo‘limi**	**3 719 646,0**
	shu jumladan:	
3.1	saqlash xarajatlari	*3 559 883,0*
3.2	madaniyat bo‘limi boshqaruv apparati saqlash xarajatlari	159 763,0
4	**Tuman sport maktabi**	**4 723 934,0**
	shu jumladan:	
	saqlash xarajatlari	4 723 934,0
5	**Tuman Axborot kutubxona markazi**	**789 883,0**
	shu jumladan:	
	saqlash xarajatlari	789 883,0
6	**Tuman Obodonlashtirish boshqarmasi**	**18 548 137,0**
	shu jumladan:	
	saqlash xarajatlari	14 001 453,0
	Ichki xo‘jalik avtomobil yo‘llarni ta’mirlash xarajatlari	4 546 684,0
7	**“Suv yetkazib berish xizmati” davlat muassasasi**	**2 790 304,0**
	shu jumladan:	
	saqlash xarajatlari	2 790 304,0
8	**Tuman Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish**	**2 782 043,0**

	bo‘limi	
	shu jumladan:	
	saqlash xarajatlari	2 782 043,0
9	**Tuman Hayvon kasalliklari tashxisi va oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligi markazi**	**693 017,0**
	shu jumladan:	
	saqlash xarajatlari	693 017,0
10	**Tuman hokimligi**	**39 866 554,0**
	shu jumladan:	
10.1	Tuman hokimligi saqlash xarajatlari	6 246 182,0
10.2	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq qabulxonasi saqlash xarajatlari	198 934,0
10.3	Ijtimoiy ko‘nikma markazlari xarajatlari	237 476,0
10.4	Zaxira jamg‘armasi xarajatlari	2 509 628,0
10.5	Hokim yordamchilari xarajatlari	5 095 514,0
10.6	Oila va xotin qizlar xarajatlari	2 229 841,0
10.7	Tashabbusli byudjet tadbirlari	23 348 979,0
11	**Tuman Yoshlar ishlari bo‘limi**	**5 412 559,0**
	shu jumladan:	
	saqlash xarajatlari	5 412 559,0
12	**Tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi**	**2 553 117,0**
	shu jumladan:	
	saqlash xarajatlari	2 553 117,0
13	**Tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi**	**1 756 815,0**
	shu jumladan:	
	saqlash xarajatlari	1 756 815,0
14	**Xalq deputatlari To‘rtko‘l tumani Kengashi kotibiyati**	**273 661,0**
	shu jumladan:	
	saqlash xarajatlari	273 661,0
15	**Tuman Fermer xo‘jaliklari markazlashgan buxgalteriyasi**	**636 066,0**
	shu jumladan:	
	saqlash xarajatlari	636 066,0
16	**O‘zbekiston mahallalari uyushmasining To‘rtko‘l tumani bo‘limi**	**4 295 205,0**
	shu jumladan:	
	“Mahalla byudjeti jamgarmasi” mablag‘lari	4 295 205,0

Xalq deputatlari To‘rtko‘l tumani Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-19-157-13-190-K/25 -son qaroriga
3-ilova

Umumdavlat soliqlaridan mahalliy byudjetlariga ajratmalar me’yorlari

Foiz hisobida

T/r	Shahar va tumanlar	Qo‘shilgan qiymat solig‘i	Foyda solig‘i	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i			Yakka tartibdagi tadbirkorlardan olinadigan daromad solig‘i (3 111 800, 3 111 104, daromad kodlari)	Yakka tartibdagi tadbirkorlardan olinadigan qat’iy belgalangan solig‘i	Aylanmadan olinadigan soliq	Alkagol mahsulotlari (aroq)	Aksiz solig‘i, benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz realizatsiyasidan soliq		Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq		Yuridik shaxslarning yer solig‘i	
				Yirik soliq to‘lovchilar	Tuman soliq to'lovchilar						QR Respublika byudjeti	Shahar va tumanlar byudjeti	Yirik soliq to‘lovchilar	Tuman soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Tuman soliq to‘lovchilar
					QR Respublika byudjeti	Shahar va tumanlar byudjeti										
1	To‘rtko‘l tumani	30	30	0	0	30	100	100	100	0	70	30	0	100	0	100

Davomi

Jismoniy shahslardan olinadigan mol-mulk solig‘i	Jismoniy shahslardan olinadigan yer solig‘i	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	Jami Davlat boji	Jami jarimalar	Yig‘imlar	Shundan	Qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq	Davlat mulkini ijarasidan tushumlar
						3 422 203 Kod yig‘imlari		
100	100	100	16	11	22	100	100	100

Xalq deputatlari To‘rtko‘l tumani
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-19-157-13-190-K/25 -son
qaroriga
4-ilova

To‘rtko‘l tumani mahalliy byudjetining 2026-yil zaxira jamg‘armasi miqdori

(ming so‘mda)

T/r	Tuman nomi	Miqdori
1	To‘rtko‘l tumani	2 509 628

Xalq deputatlari To‘rtko‘l tumani
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-19-157-13-190-K/25 -son
qaroriga
5-ilova

To‘rtko‘l tumani mahalliy byudjetida yo‘l qo‘yiladigan eng kam mablag‘lar miqdorlari

(ming so‘mda)

T/r	Tuman nomi	Miqdori
1	To‘rtko‘l tumani	828 000,0

Xalq deputatlari To‘rtko‘l tumani
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-19-157-13-190-K/25 -son
qaroriga
6-ilova

To‘rtko‘l tumani mahalliy byudjetining 2026-yilgi daromadlari va xarajatlari mablag‘larining miqdorlari

(ming so‘mda)

t/r	Tuman nomi	Daromadlar	Xarajatlar
1	To‘rtko‘l tumani	**137 542 596,0**	**137 542 596,0**

Xalq deputatlari To‘rtko‘l tumani
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-19-157-13-190-K/25 -son
qaroriga
7-ilova

Qishloq xo‘jaligi uchun mo‘ljallanmagan yerlar uchun yuridik shaxslar bo‘yicha mutloq miqdorda 1 gektar uchun belgilangan bazaviy soliq stavkalariga nisbatan kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlari

ming.so‘mda

№	MFY va OFY nomi	Koeffitsiyent (0,7 dan 3,0 gacha)	2026-yil uchun yer solig‘i stavkasi (ming.so‘mda)
1	Otauba OFY	0,76	27 554,56
2	Miskin MFY	0,76	27 554,56
3	Tozabo‘zyop MFY	0,76	27 554,56
4	Nurota MFY	0,76	27 554,56
5	Paxtaobod OFY	0,76	27 554,56
6	Bazirgan MFY	0,76	27 554,56
7	Otayurt OFY	0,76	27 554,56
8	Oqboshli OFY	0,76	27 554,56
9	Qumboskan OFY	0,76	27 554,56
10	Ko‘kcha OFY	0,76	27 554,56
11	Kaltaminor OFY	0,76	27 554,56
12	Oqqamish OFY	0,76	27 554,56
13	Yonboshqal’a OFY	0,76	27 554,56

14	Sho‘raxon OFY	0,76	27 554,56
15	Ziyokor MFY	0,76	27 554,56
16	Yashnaobod MFY	0,76	27 554,56
17	Yaxtilik MFY	0,76	27 554,56
18	Turkmanko‘li MFY	0,76	27 554,56
19	Tozabog‘yop OFY	0,76	27 554,56
20	O‘zbekiston OFY	0,76	27 554,56
21	Mash‘al MFY	0,76	27 554,56
22	Anhorli MFY	0,76	27 554,56
23	Nurliyo‘l MFY	0,76	27 554,56
24	Nurli Ullibog‘ MFY	0,76	27 554,56
25	Yangihayot MFY	0,76	27 554,56
26	Paxtachi OFY	0,76	27 554,56
27	Ullibog‘ OFY	0,76	27 554,56
28	Ko‘na To‘rtko‘l OFY	0,76	27 554,56
29	Bahor MFY	0,76	27 554,56
30	Do‘stlik MFY	0,86	31 180,16
31	Guliston MFY	0,86	31 180,16
32	G‘alaba MFY	0,86	31 180,16
33	Bog‘yop MFY	0,86	31 180,16
34	Beruniy MFY	0,86	31 180,16
35	Shodlik MFY	0,86	31 180,16
36	Yangiobod MFY	0,86	31 180,16
37	Yoshlik MFY	0,86	31 180,16
38	Jayhun MFY	0,86	31 180,16
39	Ibn Sino MFY	0,86	31 180,16

40	Istiqlol MFY	0,86	31 180,16
41	Tinchlik MFY	0,86	31 180,16
42	Toshkent MFY	0,86	31 180,16
43	Turkiston MFY	0,86	31 180,16
44	To‘rtko‘l MFY	0,86	31 180,16
45	O‘zbekobod MFY	0,86	31 180,16
46	Navro‘z MFY	0,86	31 180,16
47	Navoiy MFY	0,86	31 180,16
48	Mustaqillik MFY	0,86	31 180,16
49	Markazobod MFY	0,86	31 180,16

Qo‘shimcha: Xalq deputatlari shahar hamda tumanlardagi Kengashlari tomonidan yuridik shaxslar uchun yer solig‘i stavkalarini mahalla fuqarolar yig‘inlari kesimida tuman (shahar) markazlari uzoq-yaqinligiga qarab 0,7-3,0 kamaytiruvchi yoki ko‘paytiruvchi koeffitsientlarni belgilash huquqiga ega.

Xalq deputatlari To‘rtko‘l tumani
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-19-157-13-190-K/25 -son
qaroriga
8-ilova

Jismoniy shaxslar bo‘yicha (dehqon xo‘jaligini yuritish uchun berilgan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlardan tashqari) mutloq miqdorda 1 kv.metr uchun belgilangan bazaviy soliq stavkalariga nisbatan kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlari

so‘mda

№	MFY va OFY nomi	Koeffitsent (0,7 dan 3,0 gacha)	2026-yil uchun yer solig‘i stavkasi (so‘mda)
1	Otauba OFY	0,72	217,15
2	Miskin MFY	0,72	217,15
3	Tozabo‘zyop MFY	0,72	217,15
4	Nurota MFY	0,72	217,15
5	Paxtaobod OFY	0,72	217,15
6	Bazirgan MFY	0,72	217,15
7	Otayurt OFY	0,72	217,15
8	Oqboshli OFY	0,72	217,15
9	Qumboskan OFY	0,72	217,15
10	Ko‘kcha OFY	0,72	217,15
11	Kaltaminor OFY	0,72	217,15
12	Oqqamish OFY	0,72	217,15
13	Yonboshqal’a OFY	0,72	217,15

14	Sho‘raxon OFY	0,74	223,18
15	Ziyokor MFY	0,74	223,18
16	Yashnaobod MFY	0,74	223,18
17	Yaxtilik MFY	0,74	223,18
18	Turkmanko‘li MFY	0,74	223,18
19	Tozabog‘yop OFY	0,74	223,18
20	O‘zbekiston OFY	0,74	223,18
21	Mash‘al MFY	0,74	223,18
22	Anhorli MFY	0,77	232,23
23	Nurliyo‘l MFY	0,77	232,23
24	Nurli Ullibog‘ MFY	0,77	232,23
25	Yangihayot MFY	0,77	232,23
26	Paxtachi OFY	0,77	232,23
27	Ullibog‘ OFY	0,77	232,23
28	Ko‘na To‘rtko‘l OFY	0,77	232,23
29	Bahor MFY	0,77	232,23
30	Do‘stlik MFY	0,9	271,44
31	Guliston MFY	0,9	271,44
32	G‘alaba MFY	0,9	271,44
33	Bog‘yop MFY	0,9	271,44
34	Beruniy MFY	0,9	271,44
35	Shodlik MFY	0,9	271,44
36	Yangiobod MFY	0,9	271,44
37	Yoshlik MFY	0,9	271,44
38	Jayhun MFY	0,9	271,44
39	Ibn Sino MFY	0,9	271,44

40	Istiqlol MFY	0,9	271,44
41	Tinchlik MFY	0,9	271,44
42	Toshkent MFY	0,9	271,44
43	Turkiston MFY	0,9	271,44
44	To‘rtko‘l MFY	0,9	271,44
45	O‘zbekobod MFY	0,9	271,44
46	Navro‘z MFY	0,9	271,44
47	Navoiy MFY	0,9	271,44
48	Mustaqillik MFY	0,9	271,44
49	Markazobod MFY	0,9	271,44

Qo‘shimcha: Xalq deputatlari shahar hamda tumanlardagi Kengashlari tomonidan jismoniy shaxslar uchun yer solig‘i stavkalarini mahalla fuqarolar yig‘inlari kesimida tuman (shahar) markazlari uzoq-yaqinligiga qarab 0,7-3,0 kamaytiruvchi yoki ko‘paytiruvchi koeffitsientlarni belgilash huquqiga ega.

Xalq deputatlari To‘rtko‘l tumani Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-19-157-13-190-K/25 -son qaroriga
9-ilova

To‘rtko‘l tumani 2026-yilda yer usti va yer ostidan olinadigan suv resurslarining uchun 1 m3 hajmiga bazaviy soliq stavkalariga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlar

T/r	Tuman nomi	Iqtisodiyotning barcha tarmoqlaridagi korxonalar (bundan 2-bandda ko‘rsatilganlardan tashqari), shuningdek sanoat korxonalari, yakka tadbirkorlar hamda tadbirkorlik faoliyati va (yoki) daromad olish uchun mo‘ljallangan, yashash uchun mo‘ljallanmagan ko‘chmas mulk obyektlariga ega bo‘lgan jismoniy shaxslar				Sanoat korxonalari				Avtotransport vositalarini yuvish uchun ishlatiladigan suv hajmi				Alkogolsiz ichimliklarni hamda pivo va vinodan tashqari alkogolli mahsulotlarni ishlab chiqarish uchun foydalaniladigan suv hajmi			
		yer usti suv resurslari manbalari		yer osti suv resurslari manbalari		yer usti suv resurslari manbalari		yer osti suv resurslari manbalari		yer usti suv resurslari manbalari		yer osti suv resurslari manbalari		yer usti suv resurslari manbalari		yer osti suv resurslari manbalari	
		Koeffitsiyent miqdori	soliq stavkasi (so‘mda)	Koeffitsiyent miqdori	soliq stavkasi (so‘mda)	Koeffitsiyent miqdori	soliq stavkasi (so‘mda)	Koeffitsiyent miqdori	soliq stavkasi (so‘mda)	Koeffitsiyent miqdori	soliq stavkasi (so‘mda)	Koeffitsiyent miqdori	soliq stavkasi (so‘mda)	Koeffitsiyent miqdori	soliq stavkasi (so‘mda)	Koeffitsiyent miqdori	soliq stavkasi (so‘mda)
1	To‘rtko‘l tumani	1	749,0	1	910,0	1	749,0	1	910,0	1	16 050,0	1	16 050,0	1	40 660,0	1	40 660,0

Xalq deputatlari To‘rtko‘l tumani Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-19-157-13-190-K/25 -son qaroriga
10-ilova

To‘rtko‘l tumani 2026-yilda qazib olingan 1 m3 noruda qurilish materiallari (sement ishlab chiqarish uchun mo‘ljallangan ohaktoshdan tashqari) uchun qat’iy belgilangan soliq stavkalariga kiritilayotgan oshiruvchi koeffitsiyentlar

T/r	Tuman nomi	Parmalanadigan yirik tosh, yirik tosh, ohaktosh-tirsak, ohaktosh (sement va ohak ishlab chiqarish uchun mo‘ljallangan ohaktoshdan tashqari), dolomitlar, qurilishda ishlatiladigan mayda toshlar, bazalt, granodioritlar, granosienitlar, sienitlar, porfiritlar, diabaz-porfiritlar, gabbro, slanes bo‘laklari, karbonat xomashyosi, travertin		Tabiiy bezakdan bloklar		Marmar		Granitlar		Gips toshi, gips va angidrid, ganch		G‘isht-cherepitsa xomashyosi, lyosslar va lyossimon bo‘laklar		Qurilish qumi, qumtoshlar, qum-shag‘al aralashmasi	
		Koeffitsiyent miqdori	Soliq stavkasi	Koeffitsiyent miqdori	Soliq stavkasi	Koeffitsiyent miqdori	Soliq stavkasi	Koeffitsiyent miqdori	Soliq stavkasi	Koeffitsiyent miqdori	Soliq stavkasi	Koeffitsiyent miqdori	Soliq stavkasi	Koeffitsiyent miqdori	Soliq stavkasi

			so‘mda		so‘mda		so‘mda		so‘mda		so‘mda		so‘mda		so‘mda
1.	To‘rtko‘l tumani	1	6 591,0	1,3	13 910,0	1	21 400,0	1	32 100,0	1	17 066,0	1,2	5 931,6	1,2	6 420,0

Eslatma: Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi va viloyatlar xalq deputatlari Kengashlari ruda qurilish materiallari (sement ishlab chiqarishga mo‘ljallangan ohakdan tashqari) uchun qat’iy belgilangan stavkalarga 1,3 gacha oshiruvchi koeffitsiyent belgilashga haqli.

Xalq deputatlari To‘rtko‘l tumani
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-19-157-13-190-K/25 -son
qaroriga
11-ilova

Ko‘chmas mulkka bo‘lgan huquqlarni Davlat ro‘yxatidan o‘tkazuvchi organlarda ro‘yxatdan o‘tkazilishi kerak bo‘lgan bino va inshootlarning 1 kv. metri uchun Absolyut (qat’iy) miqdorda belgilangan minimal bahosiga solishtirganda kiritilayotgan kamaytiruvchi koeffitsent miqdori

ming so‘mda

t/r	**Tuman va shaharlar nomi**	**2026-yil uchun belgilangan bazaviy stavkasi**	koeffitsiyent miqdori	**2026-yilda (yirik soliq to‘lovchilardan tashqari) 1 kv.metr uchun belgilangan stavkasi miqdori (ming so‘mda)**
1	To‘rtko‘l tumani	1 390	0,74	1028,6